

O‘zbekiston Respublikasi
Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
**“Davlat ishtirokidagi korxonalarni
boshqarish, davlat aktivlarini
xususiylashtirish va boshqa sohalarda
2024-yildagi faoliyati to‘g‘risida”**

HISOBOTI

MUNDARIJA

Kirish.

I. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish

- | | | |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| 1.1 | Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlashni tashkil etish holati. | 5 |
| 1.2 | Davlat aktivlarining hisobini yuritish holati. | 9 |

II. Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari

- | | | |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 2.1 | Davlat aktivlarini xususiylashtirish | 11 |
| 2.2 | Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanish va ijaraga berishni tashkil etish. | 14 |
| 2.3 | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish. | 16 |
| 2.4 | Xalqaro hamkorlik masalalari. | 18 |

III. Davlat aktivlari agentligining boshqa faoliyat yo'nalishlari

- | | | |
|-----|-------------------------------------------------------|----|
| 3.1 | Baholash va rieltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish. | 24 |
| 3.2 | To'lovga qobiliyatsizlik jarayoni bo'yicha. | 30 |

IV. "E-auksion" elektron savdo platformasi faoliyati

- | | | |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 4.1 | Davlat aktivlarining auksion savdolari. | 32 |
| 4.2 | Davlat ishtirokidagi korxonalar aktivlarini auksionda realizatsiya qilish va ijaraga berish holati. | 35 |

V. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini realizatsiya qilish to'g'risida

- | | | |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 5.1 | Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun yer uchastkalarini realizatsiya qilish to'g'risida | 36 |
| | Xulosa. | 39 |

Kirish

“So‘nggi yillarda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat mulkini xususiylashtirish orqali xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, samarasiz ishlayotgan va istiqbolsiz korxonalarni tugatish yuzasidan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.”

**Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (keyingi o‘rinlarda – Davlat aktivlari agentligi) 2024-yildagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsadlarini ijrosini ta‘minlash, iqtisodiyotning xususiy sektor rivojlangan tarmoqlarida davlat ishtirokini keskin kamaytirish, xususiy sektor faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay raqobat muhitini yaratish hamda xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirishga qaratilgan.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni (2024-yil 14-fevral, O‘RQ–907) qabul qilingan. Avvalgi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun 1991-yilda qabul qilingan bo‘lib, islohotlarning bugungi kun talablariga javob bermaydi, 20 dan ortiq marotaba o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan hamda ma‘nan eskirganligi sababli mazkur Qonun qabul qilindi.

Ushbu Qonun xususiylashtirishning barcha bosqichlarini qamrab olishga qaratilgan tartib qoidalar nazarda tutilgan xususan, davlat mulkini savdoga chiqarish jarayonlari soddalashtirish, xususiylashtirish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan me‘yorlar, davlat mulkini xususiylashtirish sohasidagi vakolatli davlat organi belgilash, xususiylashtirilgan davlat mulki daxlsizligini ta‘minlash hamda xususiylashtirish jarayonida ishtirok etishda qonunchilikka muvofiq taqiqlangan shaxslar talabgor bo‘lmasligi kabi bir qator muhim normalar mavjud.

Qonunda xususiylashtirishning **elektron-onlayn auksion, tanlov, birja, muzokaralarga ommaviy ravishda taklif qilish**, raqobatga asoslangan **muloqot**, ko‘chmas mulk, ulush hamda korxonani boshqa jamiyatning **ustav fondiga kiritish** hamda korxonalarni keyinchalik sotish sharti bilan **ijaraga berish** kabi **8 ta usullar** nazarda tutilgan.

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida” gi Qonun talablari hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan **Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasida** davlat korxonalari sonini 2025-yilga qadar **75 foizga** qisqartirish maqsadiga erishish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, 2024-yil yakuni bo‘yicha davlat ishtirokidagi korxonalar soni **67 foizga qisqartirildi**.

Xususan, 2024-yilda tegishli xususiylashtirish dasturlariga asosan, **23,4 trln so‘mlik 3,7 mingdan** ortiq aktivlar savdoga chiqarilgan bo‘lib, **3 158 ta**

(**2 943 ta** davlat va davlat ishtirokidagi korxonalar aktivlarning aktivlari, **215 ta** yer qaridan foydalanish huquqi va **2 943 gektar** yer uchastkalari) aktivlar **17,4 trln so'mga** sotilishi va xususiylashtirish jamg'armasiga **9,8 trln so'm tushum tushgan**.

Yirik davlat aktivlaridan “Milliy banklararo protsessing markazi” AJ (100%) – **832 mlrd so'm**, “Interhotel” MChJ (100%) – **334 mlrd so'm** va “Uz-Koram Kompani” MChJ (100%) – **307 mlrd so'mga** sotildi.

Ilk bor “**Xalq IPO**”sini o'tkazish bo'yicha “**O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi**” AJ ustav kapitalidagi **4,4 foiz** davlat aksiyalar paketi “bitta aksiya – bitta lot” tamoyili asosida ommaviy taklif etildi. Xususan, respublikaning barcha viloyatlarida “**Roadshow**” taqdimotlari o'tkazilib, kapital bozorining professional ishtirokchilari tomonidan aholi bilan **jonli uchrashuvlar** tashkillashtirildi.

Natijada, joylashtirilishi rejalashtirilgan aksiyalar hajmiga nisbatan **108 foiz**, ya'ni **3,6 mln ta** aksiyalarni sotib olish uchun **12,6 mingta jismoniy** va **yuridik** shaxslardan **46,6 mlrd so'mlik** takliflar kelib tushdi. Kelib tushgan takliflar avval e'lon qilingan mezonlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi rezident jismoniy shaxslariga ustuvorlik huquqi berilgan holda joylashtirildi. Bunda, jami **42,9 mlrd so'mlik 11 298 ta** buyurtmalar (11 234 ta jismoniy va 64 ta yuridik shaxslar) qanoatlantirildi.

“**O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi**” AJ aksiyalari “**Xalqchil IPO**” dasturidan so'ng barqaror ijobiy o'sish dinamikasini ko'rsatib, aksiyalar egalariga o'rtacha **35%** daromadni taqdim etmoqda.

2024-yilda davlat ulushi mavjud korxonalar hamda davlat unitar korxonalari soni **2 187 tani** tashkil etdi, jumladan **254 ta** AJ, **1 457 ta** MChJ va **476 ta** DUK.

Bundan tashqari, muttasil o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra, aniqlangan **817 ta** bo'sh turgan obyektlar (**584 tasi davlat va 233 tasi davlat ishtirokidagi korxonalar obyektlari**) barchasi **2025-yil xususiylashtirish dasturi loyihasiga** kiritildi.

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan **95 mingdan ortiq (9 425 gektar)** yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarildi. 2024-yilda **35 mingdan ortiq (4 105 gektar)** boshlang'ich qiymati **2,8 trln so'm** bo'lgan yer uchastkalari **4,4 trln so'mga** yoki boshlang'ich narxiga nisbatan **1,6 trln so'mga** (158%) qimmatroq sotildi.

Xususan, 2024-yil iyul oyida Toshkent shahri, Mirobod tumanidan narxi **2,9 mlrd so'm** bo'lgan **6 sotix** yer uchastkasi oshxona, kafelar, savdo uylari qurish uchun **mulk huquqi** bilan **15 mlrd so'mga** sotildi.

O'tgan hisobot yilida davlat ishtirokidagi korxonalarni samarali boshqarish, ularda zamonaviy korporativ usullarini keng joriy etish yuzasidan ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Davlat aktivlari agentligi ishtirokidagi **63 ta** korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha **140 nafar** a'zolik o'rinlariga maxsus veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali **ommaviy tanlov e'lon qilindi**. Tanlovda

ishtirok etish uchun talabgorlardan **828 ta** (**6,0 barobar ko'p**) arizalar kelib tushgan, ushbu nomzodlardan **73 nafar** nomzodlar tanlab olinib, ularni saylash yuzasidan takliflar yuborildi.

2024-yil Davlat aktivlari agentligi ishtirokidagi **32 ta** davlat ulushi ustun mavqega ega jumladan, "Poytaxt bank" AJ, "O'zsuvqurilish" AJ, "O'zsvu'ta'minot" AJ, "Xovos temiryo'l shifoxonasi" MChJ, "O'zbekekspertiza" AJ, "Qo'qon mexanika zavodi" AJ kabi korxonalarining ijroiya organiga **35 ta** yangi rahbarlar tayinlandi, shuningdek, "O'zavtosanoat", "O'zbektelekom", "Uzbekistan airways", "Uzbekistan airports", "Olmaliq KMK" AJ va boshqalar kabi jami **24 ta** korxonalar **kuzatuv kengashlari tarkibiga 44 ta xorijiy tajribaga ega mustaqil a'zolar** kiritildi.

Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2023-yil yakuni bo'yicha davlat ulushiga hisoblangan dividend (ajratma)lardan davlat budjetiga 2024-yilda **900 dan ortiq** korxonalar tomonidan **26,3 trln so'm** to'landi.

Davlat ko'chmas mulkini ijaraga berish hisobiga umumiy qiymati **473 mlrd so'mlik 27 644 ta** (*maydoni 55 mln kvdart metr*) ijara shartnomalari tuzildi va natijada **468 mlrd so'm** tushum ta'minlangan, shundan **128 mlrd so'mi** mahalliy budjetlarga yo'naltirilgan.

2024-yilda **221 ta** baholovchilarga va **210 ta** rieltorlarga malaka sertifikatlari **berilgan**.

Shu bilan birga, 2024-yilning hisobot davrida **14 537 ta** bankrot korxonalarda (*mulki mavjud – 376 ta*) tugatish ishlari olib borildi, ularning **9 392 tasi** (65%) da tugatish ishlari yakunlangan (*mulki mavjud – 123 ta*), qolgan **5 145 tasi** (*mulki mavjud – 253 ta*) tugatish ishlari davom etmoqda. Shuningdek, **157 nafar** sud boshqaruvchisiga malaka attestati berildi, natijada ularning umumiy soni **333 taga** yetkazildi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (**my.gov.uz**) orqali qo'shimcha **4 ta davlat xizmatlarini** ko'rsatish **yo'lga qo'yilib, ularning soni 18 taga** yetkazildi.

Ta'kidlash joizki, Davlat aktivlari agentligining **"Davaktiv"** va **"Online-ijara"** **mobil ilovalari** ishga tushirildi (mobil ilova orqali jismoniy va yuridik shaxslar vakillari tomonidan uzoq (olis) hududlardan tez va oson tarzda murojaatlar yuborish imkoniyati yaratilgan) hamda Davlat aktivlari agentligini biznes jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha davlat mulki obektlari bilan savdolarni o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish portali (*portal.davaktiv.uz*) hamda mulkni ijaraga berish axborot tizimining yangi versiyasi (*online-ijara.uz*) **axborot tizimlari** ishlab chiqildi.

Hisobot davrida targ'ibot va tashviqot ishlari ham faol amalga oshirildi. Jumladan **455 ta** chiqishlar (**65 ta** TV va radio, **77 ta** gazeta va jurnallar, **313 ta** ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) **12 ta xorijiy OAV** (*The Diplomat, The Times of Central Asia, bne IntelliNews, Kursiv Media, GlobalCapital, Trend AZ, Petroleum Economist, Aviation Week va boshqa*) larda ma'lumotlar joylashtirildi va **16 ta xalqaro forum va konferensiyalarda** faol ishtirok etildi, shuningdek,

xususiylashtirish jarayonlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha hududlarda tadbirkor va ishbilarmonlar uchun **Roadshow taqdimotlari** o'tkazildi.

Bundan tashqari, savdo jarayonlarining shaffofligini ta'minlash borasida "E-auksion" elektron savdo platformasida umumiy qiymati **35,6 trln so'm** (2023-yilga nisbatan 181 foiz) bo'lgan aktivlar **289 706 ta lot** elektron savdolarga chiqarildi.

"E-auksion" savdo platformasida **barcha davlat muassasalarining asosiy vositalari** sotish hamda **xususiy mulkdorlar** buyurtmalarini realizatsiya qilish va ijaraga berish bo'yicha **soddalashtirilgan tartib va muddatlarda** sotish joriy etildi. Shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishda ochiq elektron **tanlov o'rniga** elektron onlayn-auksion savdolarini o'tkazish hamda **O'rmon fondi** yer uchastkalarini va **davlatga tegishli suv havzalarini** tadbirkorlik subyektlariga platforma orqali ijaraga berish yo'lga qo'yildi.

Mazkur platformani texnologik takomillashtirish maqsadida, **yer uchastkalari** bo'yicha to'lovlarni to'lash bo'yicha shartnomalarni platforma orqali imzolash hamda ommaviy oferta va boshqa shartnomalarni imzolashda qo'shimcha ravishda **OneID tizimidan** foydalanish imkoniyati yaratildi.

Umuman olganda, Davlat aktivlari agentligining 2024-yildagi faoliyati xususiylashtirish orqali iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish va tadbirkorlarga sharoit yaratish, davlat mulkini samarali boshqarishni tashkil etishga qaratilgan va ushbu vazifalarni bajarish 2025-yilda ham safarbarlik ruhida tashkil etiladi.

A.J.Ortikov
Davlat aktivlarini boshqarish
agentligi direktori

I. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish

1.1 Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlashni tashkil etish holati

Davlat aktivlari agentligi davlat mulkini boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi sifatida davlat ishtirokidagi korxonalarni samarali boshqarishni tashkil etish va ularda zamonaviy korporativ usullarini joriy etishga qaratilgan quyidagi amaliy ishlar olib borilgan:

1. Davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish Komissiyaning qarorlari bilan davlat ishtirokidagi **63 ta** korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish uchun maxsus veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali tanlovlar o'tkazildi.

Mazkur tanlovlarda ishtirok etish uchun **140 nafar** a'zolik o'rinlariga jami **828 nafar** talabgorlardan arizalar kelib tushgan. Ushbu talabgorlardan davlat ulushi bo'yicha **73 nafari** tanlab olinib, korxonalarining boshqaruv organlarida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun ilgari surildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ–101-son hamda 2024-yil 19-apreldagi PQ–163-son qarorlari talablaridan kelib chiqib, **Osiyo taraqqiyot banki** hamda **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki** ekspertlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan **Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari** hamda **Axloq kodeksi** hisobot davrida **58 ta** davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruv organlarining qarorlari qabul qilinib, ularning faoliyatiga tatbiq qilindi.

3. Hukumatning tegishli qarorlariga (*Vazirlar Mahkamasining 800-, 350-, 139-son va boshqalar*) asosan davlat ishtirokidagi **1 253 ta** korxonalardan **940 tasi** tugatilgan va qolgan **312 tasi** bo'yicha tugatish ishlari davom ettirilmoqda.

Tegishli xususiylashtirish dasturlariga asosan **443 ta** aksiya paketlari (ulushlari) Davlat aktivlari agentligiga o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ–162-son qarori hamda Xususiylashtirish Davlat komissiyasining 2024-yil 18-maydagi bayoniga asosan "O'zavtosanoat" AJning mas'ul rahbar xodimlariga "O'zavtosanoat" AJ va uning tizim korxonalaridan Davlat aktivlari agentligiga o'tkazilgan **13 ta** korxonalaridagi davlat ulushlarini xususiylashtirilgunga qadar boshqarish vakolati ishonchnoma asosida berildi.

4. Davlat aktivlarini samarali boshqarishni tashkil etish yo'nalishida:

a) 1 776 ta davlat ishtirokidagi (*tugatish jarayonida, faoliyatsiz, bankrot, hisobot topshirmaganlardan tashqari*) korxonalardan **924 tasi** 2024-yil 9 oylik yakuni bo'yicha soliq organlariga va "Davlat mulki" saytiga hisobot taqdim etgan (*shu jumladan 22 ta yirik strategik korxonalar*). Shundan:

- **sof tushum 292,9 trln so'mni** (o'sish 37,8%) tashkil etadi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **270 ta** korxonada ko'paygan va **114 ta** korxonada kamaygan;

- **tannarx 207,6 trln so'mni** tashkil etadi, o'rtacha **3,9%**ga kamaygan (*bunda 5 ta yirik korxonalarda tannarx oshgan*);

- **sof foyda 38,7 trln so'mni** tashkil etgan (o'sish-37,2%), shundan **35,3 trln so'mi** (91,2%) yirik korxonalariga to'g'ri keladi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **169 ta** korxonada ko'paygan va **108 ta** korxonada kamaygan, shuningdek, **177 ta** korxonada **5,5 trln so'm zarar** ko'rgan (*kamayish-29,6%*);


- **budjetga to'lovlar 52,7 trln so'mni** tashkil etgan (o'sish – 28,8%), shundan **85,9%** (**45,3 trln so'm**) yirik korxonalariga to'g'ri keladi, to'lovlar **270 ta** korxonada kamaygan (*7 tasi yirik korxonalar*);

- **joriy kreditor qarzdorlik 138,5 trln so'mni** tashkil etadi va yil boshiga nisbatan **16,3%**ga ko'paygan, shundan **90,8 trln so'mi** (**65,6%**) yirik korxonalariga to'g'ri keladi **373 ta** korxonada ko'paygan, shundan **16 tasi** yirik korxonalar;

- **debitor qarzdorlik 133,9 trln so'mni** tashkil etadi va yil boshiga nisbatan **17,8%**ga ko'paygan, shundan **88,9 trln so'm** (**66,4%**) yirik korxonalariga to'g'ri keladi, **332 ta** korxonada ko'paygan, shundan **14 tasi** yirik korxonalar hisoblanadi.

1- grafik

Davlat ishtirokidagi korxonalarda ijro organi faoliyati samaradorligi muhim ko'rsatkichlari (KPI) ning 2024-yil 9 oylik yakuni bo'yicha joriy etish holati



* Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 674-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalar biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni *har chorak yakunlari bo'yicha hisobot davrining keyingi oyi davomida, yil yakunlari bo'yicha keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar* elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda Davlat aktivlari agentligining maxsus axborot tizimida joylashtirib boradi.

b) 132 ta davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan **jami 6 226,4 mln dollar** miqdorida **import qilingan** (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish – **100,0 %**).


Bunda, **import hajmining asosiy** qismi mashinasozlik va elektrotexnika – **6,2%**, bank va moliya tashkilotlari – **16,4%**, nef-gaz – **39,7%**, metallurgiya – **10,5%**, energetika – **6,2%**, yo'l-transport – **4,4%**, axborot texnologiyalari – **3,5 %** va boshqa sohalarga to'g'ri keladi.

d) 82 ta davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan **3,3 mlrd dollarlik** tovarlar eksport qilingan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **3,1 foizga** kamaygan (ishlar va xizmatlarsiz).

5. Zarar ko'rgan va iqtisodiy tavakkalchilik holatidagi 120 ta davlat ishtirokidagi korxonalarni **2024-yilda** moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan **“yo'l xaritalari” — dasturlari** ishlab chiqildi. Jumladan **120 ta** korxonalarda “Yo'l xaritasi” ijrosi bo'yicha monitoringi olib borildi. Shundan 2024-yil 9 oy yakunlariga ko'ra, **75 ta** korxonalar **4,9 trln so'm sof foyda** olgan bo'lsa, qolgan **45 ta** korxonalar **695 mlrd so'm zarar** bilan yakunlagan bo'lib, ushbu korxonalarda 2024-yil yakunlari bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kutilmoqda.

2-grafik

Davlat ishtirokidagi korxonalarni 2024-yilda moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan “Yo'l xarita” dasturlari ijrosi bo'yicha monitoring ko'rsatkichlari



* Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 674-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalar biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni *har chorak yakunlari bo'yicha hisobot davrining keyingi oyi davomida, yil yakunlari bo'yicha keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar*, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda Davlat aktivlari agentligining maxsus axborot tizimida joylashtirib boradi.

6. “Davlat mulki” avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan Majburiy ijro byurosi (*xatlangan va taqiq qo'yilgan mol-mulk*), Davlat soliq qo'mitasining (*dividendlar*), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (*davlat ishtirokidagi korxonalarida investitsiya loyihalari*), Milliy statistika qo'mitasi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi axborot tizimlariga **integratsiya qilindi**.

7. Davlat ishtirokidagi korxonalarining 2023-yil yakuni bo'yicha faoliyati natijadorligi va davlat mulkidan foydalanish holati to'g'risidagi Yig'ma hisoboti shakllantirilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi va Davlat aktivlari agentligining **vab-saytida e'lon qilindi**.

8. “Davlat mulkini boshqarish to'g'risida” hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunlar talablaridan kelib chiqib, Davlat aktivlari agentligi ishtirokidagi davlat ulushi ustuvor **32 ta** korxonalar boshqaruv organlarining qarorlari bilan ijroiya organiga tanlov o'tkazilishi bo'yicha qarorlar qabul qilinib, ijroiya organidagi **35 ta** a'zolik o'rniga yangi rahbarlar tayinlandi.

Davlat ishtirokidagi yirik korxonalariga mustaqil a'zolari jalb etish maqsadida **38 ta** yirik korxonalariga **79 nafar** mustaqil a'zolari jalb qilish masalasi **Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan**.

Shunga ko'ra, “Strikitsa Consulting” Ltd. tomonidan **38 ta** yirik korxonalariga jalb etish uchun malakaviy talablarni inobatga olgan holda **99 nafar** nomzodlar **qisqa ro'yxati (short list)** shakllantirilgan bo'lib, ularning ichidan **79 nafar** mustaqil a'zolari **tanlab olish taklif etilgan**. Bugungi kunda, **24 ta** yirik korxonalariga **44 nafar** xorijiy mustaqil a'zolar jalb etildi.

9. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2023-yil yakuni bo'yicha davlat ulushiga hisoblangan dividend (ajratma)lardan davlat budjetiga 2024-yilda **900 dan ortiq** korxonalar tomonidan **26,3 trln so'm** to'langan.

3-grafik

Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan to'langan dividend ko'rsatkichlari



1.2 Davlat aktivlarining hisobini yuritish holati

Davlat mulki va davlat ishtirokidagi korxonalar hisobini yuritish property.davaktiv.uz axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat ishtirokidagi korxonalar 2025-yil 1-yanvar holatiga **2 187 tani** tashkil etdi.

Davlat aktivlarining tashkiliy-huquqiy shakli (jami – **30 083 ta**):

- aksiyadorlik jamiyatlari – **254 ta** (25 foizgacha – **38 ta**, 25-50 foizgacha – **50 ta**, 51-99 foizgacha – **128 ta**, 100 foiz – **38 ta**);

- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – **1 457 ta** (25 foizgacha – **121 ta**, 25-50 foizgacha – **174 ta**, 51-99 foizgacha – **577 ta**, 100 foiz – **585 ta**);


- davlat unitar korxonalari – **476 ta**;

- davlat muassasalari – **27 896 tani tashkil etadi.**

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan **28 372 ta** davlat tashkilotlarining **23 431 tasi** davlat mulkining joriy holati bo'yicha hisobotlarini "**property.davaktiv.uz**" ATga topshirdi.

4-grafik

Davlat aktivlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili



Izoh: Xususiyashtirish dasturlariga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'lgan korxonalarni ommaviy savdolar orqali sotish uchun davlat tasarrufiga olinganligi sababli, 2024-yilda aksiyadorlik jamiyatlari soni ortgan.

“property.davaktiv.uz” ATga hisobotlarni kiritmagan yoki to‘liq kiritmagan davlat tashkilotlariga yuborilgan **taqdimnomalar**, ularga qo‘llanilgan **ma‘muriy javobgarlik choralari** va **jarimalar bo‘yicha pul tushumlarining** monitoringi “Davlat mulki” ATda **elektron ravishda yuritilishi ta‘minlandi**.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ–101-son qaroriga muvofiq davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar murojaatlariga asosan Davlat aktivlari agentligi tomonidan **598 ta** tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi uchun buyruqlar qabul qilingan. Jumladan, **232 ta** yangi tashkil etilgan davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar hamda **366 ta** ta‘sis hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha buyruqlarni tashkil etadi.

Davlat aktivlari agentligi taqdimnomalari ijrosini ta‘minlamagan **465 ta** davlat tashkilotlarining **mansabdor shaxslariga** nisbatan **ma‘muriy javobgarlik choralari qo‘llanildi**.


Qonunchilik talablari asosida respublika bo‘yicha jami **26 394 ta** davlat muassasalari xatlovdan o‘tkazilib, shundan **24 mingdan** ortig‘i bo‘yicha tahlillar o‘tkazildi.

Tahlil natijalari bo‘yicha qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-apreldagi 139-son qaroriga asosan, Respublika bo‘yicha **208 ta** davlat muassasalari filialga aylantirildi, **272 tasi** tugatildi, **29 tasi** bo‘yicha tugatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Respublika mulkidan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida davlat ko‘chmas mulk obyektlari bir davlat tashkilotidan boshqa bir davlat tashkilotiga o‘tkazish bo‘yicha Davlat aktivlari agentligining **101 ta qarori qabul qilindi**.

5-grafik

Davlat aktivlari agentligi tomonidan qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida



II. Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari

2.1 Davlat aktivlarini xususiylashtirish


Tegishli xususiylashtirish dasturlariga muvofiq **2024-yilda 23,4 trln so‘mlik 3,7 mingdan** ortiq aktivlar, shu jumladan davlat ulushlari, ko‘chmas mulk obyektlari va yer uchastkalarini ommaviy savdolarga chiqarilgan.

Ushbu davrda **3 158 ta davlat aktivlari 17,4 trln so‘mga** sotildi va **9,8 trln so‘m tushum ta‘minlandi**.

Misol tariqasida yirik davlat aktivlaridan “Milliy banklararo protsessing markazi” AJ (100%) – **832 mlrd so‘m**, “Interhotel” MChJ (100%) – **334 mlrd so‘m**, “Uz-Koram Kompani” MChJ (100%) – **307 mlrd so‘m**, “Sharq nashriyot-matbaa” AJning bino va inshootlari – **300 mlrd so‘m**, “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ (35%) – **200 mlrd so‘m**, “Foton” AJ (85,58%) – **151 mlrd so‘mga** sotilgan.

6-grafik

Davlat aktivlarini xususiylashtirish va ulardan tushum
(trln so‘m)




Shuningdek, “O‘zdonmahsulot” AK tarkibidagi **43 ta** don korxonalaridagi davlat ulushi ommaviy savdolariga chiqarilgan bo‘lib, shundan **36 tasi 1,6 trln so‘mga** sotilgan, **7 tasi** bo‘yicha savdolar davom etmoqda.

2. Boshlang‘ich qiymati **5,9 trln so‘mlik 95 543 ta** (**9 424 ga**) shundan 2024-yilda **5,7 trln so‘mlik 48 876 ta** (**6 673 ga**) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarilib, **35 355 tasi** (**4 105 ga**) **4,4 trln so‘mga** sotildi.

Misol tariqasida Toshkent tumanidan narxi **2,7 mlrd so‘m** bo‘lgan **11 sotix** yer uchastkasi oshxona, kafelar, savdo uylari qurish uchun mulk huquqi bilan **6,6 mlrd so‘m**, Denov tumanidan narxi **357,9 mln so‘m** bo‘lgan **19 sotix** yer uchastkasi avto turargoh qurish uchun mulk huquqi bilan **3,6 mlrd so‘mga** sotilgan.


7-grafik

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarish holati (trln so‘m)



Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijara huquqi asosida respublika bo‘yicha o‘rtacha **1 sotix** yer uchastkasi elektron onlayn-auksion orqali **14,1 mln so‘mga** realizatsiya qilingan.

Auksion savdolari orqali viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida sotilgan o'rtacha 1 sotix qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasini qiymati to'g'risida (mln so'm)



Shuningdek, **310 ta** (**171 gektar**) yer uchastkalari master-reja asosida auksion savdolariga chiqarildi va **67 tasi** (**36,4 gektar**) **42,4 mlrd so'm**ga sotildi.

3. 2024-yil davomida **242 ta** jami **1 623 mlrd so'm** va **1 346 mln AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritish hamda **17 255 ta** ish o'zni yaratish majburiyatlari bilan sotilgan davlat aktivlari bo'yicha monitoring olib borildi. Shundan **78 ta** obyekt to'liq ishga tushirilishi hisobiga **1 607 mlrd so'm** va **275 mln AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritildi hamda **6,1 mingdan ortiq** yangi ish o'rinlari yaratildi (*kambag'al toifadagi aholi – 523 ta, ayollar – 538 ta, yoshlar – 787 ta*).

Misol uchun: Xorazm viloyati, Urganch shahri, Sanoatchilar ko'chasi 1-uyda joylashgan bo'sh turgan bino-inshootlarga "Khorezm insulation group" MChJ tomonidan **54,5 mln AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritilib, **bazalt xom-ashyosidan issiqlik saqlovchi plitalar ishlab chiqarish** faoliyati tashkil etildi va **120 nafar** yangi ish o'rinlari yaratildi.

22 ta davlat aktivlari bo'yicha oldi-sotdi shartnomalari xaridorlar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi sababli belgilangan tartibda **bekor qilindi**.

142 ta sotilgan davlat aktivlariga jami **794,9 mlrd so'm** va **1 144 mln AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritish, **10 152 ta** ish o'zni yaratish bo'yicha majburiyatlar monitoringi olib borilmoqda.

2.2 Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanish va ijaraga berishni tashkil etish


Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi tomonidan davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan noturar bino va inshootlarni, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini aniqlash hamda hisobini yuritish, ularni saqlash va ulardan samarali foydalanish, shu jumladan, ijaraga berishni tashkil etish, ijaraga berilgan davlat mulki obyektlarini va ular bo'yicha mablag'larning hisobini yuritish, davlat tashkilotlari, muassasalari va korxonalarida davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanilishi va ularning saqlanishini belgilangan tartibda tekshirish, ortiqcha qismini, shuningdek, foydalanilmayotgan yoki maqsadsiz foydalanilayotgan davlat mulki obyektlarini olib qo'yish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xatlov natijalariga ko'ra aniqlangan **817 ta** bo'sh turgan obyektlar (**584 tasi davlat va 233 tasi davlat ishtirokidagi korxonalar obyektlari**) barchasi **2025-yil xususiylashtirish dasturi loyihasiga** kiritildi.

O'z navbatida, Davlat aktivlari agentligi tomonidan 2024-yil dekabr oyida xususiylashtirish dasturi loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

9-grafik

Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanish tahlili




Davlat mulkini ijaraga berish.

Respublika bo'yicha ko'chmas mulkni ijaraga berish hisobiga umumiy qiymati **472,8 mlrd so'mlik 27 644 ta** (maydoni **55 mln kvdart metr**) ijara shartnomalari tuzilgan va natijada **467,6 mlrd so'm** tushum ta'minlangan, shundan **128 mlrd so'm** (2023-yilda 90 mlrd so'm) mablag'lar budjetga yo'naltirilgan.

10-grafik

Davlat mulkini ijaraga berish holati



Hokim yordamchilar tomonidan berilgan buyurtmanomalar bo'yicha:

Hokim yordamchilari tomonidan **elektron platformaga jami 5 638 ta buyurtmanomalar kelib tushgan** (**1 194 tasi sotish**, **1 528 tasi ijaraga berish** va **2 916 tasi yer uchastkasi masalasida**).

Shundan:

- **342 tasi** qabul qilinib, ularning **18 tasi** sotish (**8 tasi sotilgan**), **324 tasi** ijaraga berish uchun auksion savdolariga chiqarilgan (**109 tasi ijaraga berilgan**);

- **2 380 tasi** bo'yicha tegishli tushuntirish va asoslarni keltirgan holda **rad javobi berilgan**;

- **2 200 tasi** "Yerelektron.uz" dasturiga o'tkazilgan va **716 tasi** hokim yordamchilari tomonidan takroran yoki xato yuborilgan.

2.3 Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish

Hisobot davrida Davlat aktivlari agentligi faoliyatini raqamlashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng jalb etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Xususan:

1. Davlat aktivlari agentligi tomonidan an'anaviy ko'rsatiladigan jami **18 ta** davlat xizmatlari to'liq raqamlashtirilib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) va Davlat xizmatlari markazlari orqali xizmatlarni ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Shundan **4 tasi** 2024-yilda ishga tushirildi.

2. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun **sotilgan davlat aktivlari to'lovlarini** elektron to'lov tizimlari **"Payme"**, **"Click"** va **"Uzum bank"** mobil ilovalari orqali **24/7** rejimida **to'lash imkoni yaratildi**.

3. Davlat aktivlari agentligining **"Davaktiv"** va **"Online-ijara"** mobil ilovalari ishga tushirildi.

4. Davlat aktivlari agentligini biznes jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha **2 ta** (*portal.davaktiv.uz* va *online-ijara.uz*) axborot tizimi ishlab chiqildi va takomillashtirildi.

5. Davlat aktivlarini oldi-sotdi va ijara **shartnomalarini** elektron shaklda tuzish va ularni **QR-kod** qo'yilgan holda **elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash** joriy etildi.

6. Davlat aktivlari agentligining axborot tizimlari **5 ta** vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o'rtasida o'zaro elektron axborot almashinuvi (**integratsiyasi**) **yo'lga qo'yildi**.

7. Har bir Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalariga **1 tadan** fuqarolik huquqiy shartnoma asosida IT va axborot va kiberxavfsizlikka mas'ul xodim biriktirildi.

2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar:

1. "E-auksion" elektron savdo platformasida ro'yxatdan o'tish jarayonida **sun'iy intellekt** elementlari asosida shaxslarni biometrik (**Face-ID**) **identifikatsiya** qilish joriy qilinadi.

2. **"Davaktiv finance"** va **"property.davaktiv.uz"** axborot tizimlari **ishlab chiqiladi**.

3. **"Elektron hukumat"** tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali **10 ta** vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan **integratsiya qilinadi**.

4. IT va axborot va kiberxavfsizlik sohasida Davlat aktivlari agentligining **7 nafar** xodim **malakasi oshiriladi**.

DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING O'RGAN YILDAGI RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN VA 2025-YILDA REJALASHTIRILGAN ISHLAR



QR-kod qo'yilgan elektron shaklda



4 ta

Yangi xizmat joriy qilish va 3 ta xizmatni takomillashtirish

- ▶ Davlat namunasidagi order va sertifikatlar shuningdek, dublikatlarni berish
- ▶ Davlat ulushiga ega korxonalar bo'yicha ma'lumot berish xizmati
- ▶ Davlat mulkining ijara haqi birlamchi miqdorini hisoblash xizmati
- ▶ Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda o'tkazish xizmati
- ▶ Baholovchilar malaka sertifikatini berish (VMQ-635-son qarori)
- ▶ Rieltorlar malaka sertifikatini berish
- ▶ Sud boshqaruvchilari talabgorlarini attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o'tkazish va ularga malaka attestatini berish

2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR



2 ta

Davlat aktivlarini oldi-sotdi va ijara **shartnomalari elektron shaklda tuzish** va ularni **QR-kod qo'yilgan** holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash joriy etildi



2 ta

Davlat aktiv agentligini «Davaktiv» va «Online-ijara» **mobil ilovalari** ishlab chiqildi



2 ta

Davlat aktiv agentligini biznes jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha **axborot tizimi** ishlab chiqildi



5 ta

Axborot tizimi va xujjatlarini axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan **ekspertizadan** o'tkazish



5 nafar

Xodim IT va axborot va kiberxavfsizlik sohasida **malakasi oshirildi va sertifikatlarga ega bo'ldi**



14 nafar

Hududiy boshqarmalar uchun IT va axborot va kiberxavfsizlikka mas'ul xodim bilan fuqarolik huquqiy shartnoma imzolandi

5 ta

Vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan integratsiya qilindi



- ▶ Davlat aktivlarini oldi-sotdi va ijara shartnomalari to'lovlarini elektron to'lovlar tizimlari orqali **24/7 rejimida to'lash** imkoniyatini joriy etildi
- ▶ Kadastr agentligi bilan davlat aktivlariga berilgan **order va sertifikatlar ma'lumotlari** bo'yicha
- ▶ Soliq qo'mitasi bilan davlat aktivlariga berilgan **order va sertifikatlar ma'lumotlarini** hamda **aktivni taqiqqa qo'yilganligi** bo'yicha
- ▶ Biznesni rivojlantirish banki ATB AJning Biznes portaliga
- ▶ "Raqamli hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimiga

2025-YILDA REJALASHTIRILGAN ISHLAR



5 ta

Axborot tizimi va xujjatlarini axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga ekspertizadan o'tkazish



2 ta

Axborot tizim ishlab chiqish



6 ta

Vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadi



10

nafar

Vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali integratsiya qilinadi



47

nafar

Ochiq ma'lumotlar joylashtiriladi



7

nafar

Xodim IT va axborot va kiberxavfsizlik sohasida **malakasi oshirish**

2.4 Xalqaro hamkorlik masalalari

Hisobot davrida Davlat aktivlari agentligi faoliyatda xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, xalqaro tajribalarni o'rganib, ularni mamlakatimizda qo'llash, xorijiy investorlarni jalb etish, O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish yuzasidan qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan:

1. Xalqaro hamkorlik bo'yicha jami **52 ta** uchrashuvlar o'tkazildi, bular, rahbariyat ishtirokida **43 ta** rasmiy va **9 ta** tegishli loyihalar doirasida ishchi tartibdagi uchrashuvlar.

16 ta xalqaro forum va konferensiyalarda Davlat aktivlari agentligi vakillarining faol ishtiroki ta'minlandi, xususan:

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkil etilgan **“Financing Uzbekistan's Green Transitio”**, **“O'zbekistonda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish”** konferensiyalarida va O'zbekistonning investitsion jozibadorligini yoritib beradigan muhim tadbir **“III Toshkent xalqaro investitsiya forumi”**da **“Xususiylashtirish va davlat aktivlari: investitsiyalar uchun yangi imkoniyatlar”** mavzusida panel sessiya tashkil etildi, Samarqand shahrida **Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Kengashining IX yillik anjumani** doirasida **“Yangi O'zbekiston — katta imkoniyatlarga ega katta Davlat”** panel sessiyasida xususiylashtirish va davlat aktivlari yuzasidan taqdimot o'tkazildi va yangi xususiylashtirish dasturini o'z ichiga olgan **1500** nusxadagi broshyuralar xorij tomon vakillariga, O'zbekistondagi aeroportlar, vokzal va mehmonxonalarga tarqatildi.

“O'zbekistonda raqobatbardoshlikni oshirish uchun adolatli bozor sharoitlari” mavzusiga bag'ishlangan xalqaro seminarda ishtirok etildi.

Turkiya Respublikasi Anqara shahrida bo'lib o'tgan **“O'zbekiston-Turkiya biznes forumi”** doirasida, **“Xususiylashtirish – iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi va biznes uchun imkoniyatlar”** mavzusida panel sessiya o'tkazildi.

Turkiya Respublikasi Istanbul shahrida **“O'zbek-Turk to'qimachilik”** forumida xususiylashtirish yuzasidan **RoadShow** o'tkazildi. **Turkiya Xususiylashtirish administratsiyasi** bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida ikki tomonlama anglashuv **memorandumi imzolandi**.

Toshkent shahrida **“O'zbekiston-Xitoy”** to'qimachilik forumida xususiylashtirish bo'yicha ma'ruza bilan ishtirok etildi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonlari yuzasidan **Shveytsariya-Osiyo savdo palatasi** uchun taqdimot qilindi.

2024-yil 12-13-dekabr kunlari Filippinning Manila shahrida davlat korxonalarining korporativ boshqaruvi bo'yicha **IHTT-Osiyo tarmog'ining** yig'ilishida ishtirok etildi.

Moliyaviy bozorlar bo'yicha biznes konferensiyalarning yetakchi provayderi **Cbonds-Congress** va Investitsiya institutlari milliy uyushmasi tomonidan mamlakatimiz Kapital bozorini isloh qilish va uni jadal rivojlantirish istiqbollari muhokamasiga bag'ishlangan **“O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozori” VI xalqaro konferensiyasi** doirasida davlat aktivlari va yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayonlari, 2024-yilga mo'ljallangan istiqbolli rejalar bo'yicha **RoadShow** o'tkazildi.

2024-yil 18-sentabr kuni Abu Dabi shahrida Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) ishbilarmon doira vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan **“Biznes aloqalar: Abu Dabi va O‘zbekiston”** forumida, Davlat aktivlari agentligi tomonidan **“Xususiylashtirish – bu biznes uchun yangi yo‘nalish va imkoniyatlar”** mavzusida taqdimot o'tkazildi hamda **70 dan ortiq** BAA ishbilarmon soha vakillariga O‘zbekistonda xususiylashtirish sohasida erishilgan natijalar, kelgusidagi istiqbolli rejalar, jumladan, tegishli xususiylashtirish dasturlariga muvofiq savdoga chiqarilgan va xususiylashtirilishi belgilangan yirik davlat aktivlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ularni sotib olish jarayonlari bo'yicha tushuntirishlar berib o'tildi.

Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi – “Innoweek.uz” doirasida **“Global indeks forumi”**da, Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan tashkil qilingan **Davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini va iqlim o'zgarishi sohasida (PIMA va C-PIMA) baholash bo'yicha tadbirda** Davlat aktivlari agentligi vakillarining ishtiroki ta'minlandi.

Shuningdek, 2024-yilning 21-noyabr sanasida **“Bloomberg Discovery Day”** konferensiyasida ishtirok etilib, Bloomberg kompaniyasi vakillari bilan Davlat aktivlari agentligi faoliyati hamda xususiylashtirish doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni **Bloomberg** terminalida joylab borish bo'yicha **muzokaralar o'tkazildi** va Samarqand shahrida **“Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarni barqaror rivojlantirishda atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish istiqbollari: xalqaro va milliy tajriba”** mavzusida xalqaro konferensiya ishtirok etildi.

Seminarlar:

Quyidagi **7 ta** xalqaro seminarlarda Davlat aktivlari agentligi xodimlarining ishtiroki ta'minlandi:

PwC kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan **“Transfert narxlarni shakllantirish metodologiyasidan foydalangan holda aloqador shaxslar bilan tuzilgan bitimlar tahlili”** mavzusida;

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkil etilgan **“Bozordagi davlat korxonalarini”**, “Davlat korxonalarining korporativ boshqaruvida IHTTning yangilangan yo'riqnomalari” va mavzusida;

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkil etilgan **“Davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish dasturini qo'llab-quvvatlash”**, “Davlat

korxonalarining kuzatuv kengashi a'zolarini tanlash va tayinlash" va "Ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilgan xususiylashtirishni qo'llab-quvvatlash" mavzusida;

Indoneziyaning Jakarta shahrida "**Davlat aktivlarini boshqaruvchi idoralarning**" 8-xalqaro forumi doirasida iqtisodiy sektor mutaxassislarini salohiyatini oshirishga qaratilgan o'quv;

Yaponiya xalqaro hamkorlik markazi tomonidan tashkil etilgan "**Yaponiya hukumatining beg'araz yordami doirasida kadrlarni tayyorlashga oid stipendiyalar**" mavzusidagi seminarlarda Davlat aktivlari agentligining xodimlarining ishtiroki ta'minlandi. 2024-yil 25-26-yanvar kunlari, Jahon banki hamkorligida tashkil etilgan PEFA asosida, baholash bo'yicha seminarda ishtirok etildi, bundan tashqari, texnik ko'mak asosida 2024-yil 8-15-mart sanasida Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi vakili **Singapur**ga o'quv seminariga yuborildi.

Germaniyalik konsultant Matias Nehm tomonidan "**Respublika va munitsipal mulklar boshqaruv tartibi va mezonlari**" bo'yicha seminar o'tkazildi.

Shveysariyaga **Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish** jarayonlarini o'rganish yuzasidan Davlat aktivlari agentligi xodimi o'quv seminariga yuborildi.

Shu bilan birga, Davlat aktivlari agentligi vakillarining Qozog'iston, Indoneziya, Shveysariya (4) va Turkiya (4), Rossiya, AQSH, Qirg'iziston va BAA davlatlariga belgilangan tartibda xizmat safari tashkil etildi.

2. Jahon bankining "O'zbekistonda institutsional salohiyatni oshirish"da texnik ko'mak ko'rsatish (IBL) loyihasi doirasida:

a) Xususiylashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "**Dentons**" kompaniyasi xalqaro **yuridik konsultant** sifatida jalb etildi;

b) Davlat korxonalarini faoliyatini monitoring qilish tizimini avtomatlashtirish dasturini ishlab chiqish;

Davlat korxonalarini korporativ boshqaruv tizimlari va yagona siyosatini takomillashtirish bo'yicha xalqaro maslahatchini jalb qilish bo'yicha Jahon banki bilan kelishuvga erishildi va texnik topshiriqlar ishlab chiqilib Jahon bankiga taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi "**Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida**"gi Qonunni qabul qilinganligi munosabati bilan **Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va "Indecon consulting"** vakillarining video shaklidagi munosabatlari olindi, mazkur Qonun ingliz tiliga tarjima qilindi.

"Strikitsa Consulting" tomonidan **38 ta** yirik korxonalariga **79 nafar** mustaqil a'zolarni jalb etish uchun **99 nafar** xorijlik nomzodlarning qisqa ro'yxati (short list) shakllantirildi hamda kelishish uchun mazkur ro'yxat Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

IBL loyihasi doirasida Xususiylashtirish operatsiyalarini amalga oshirish, Davlat ishtirokidagi kompaniyalarning korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini monitoring qilish tizimini joriy etish bo'yicha IT platforma ishlab chiqish jarayonlariga xorijiy ekspertlarni jalb qilish maqsadida texnik vazifalar ishlab chiqilib, ushbu loyihalar yuzasidan Jahon bankining roziligi olindi. O'z navbatida, tanlov muddati davrida **5 ta** nomzodlar tomonidan arizalar kelib tushgan bo'lib, Jahon bankining O'zbekistonda institutsional salohiyatni oshirish (IBL) loyihasi doirasida kelib tushgan takliflarning eng ma'qulini aniqlash yuzasidan Davlat aktivlari agentligining baholash komissiyasi tomonidan nomzodlar ko'rib chiqildi.

3. Germaniyaning Federal ko'chmas mulk instituti vakillari bilan hamkorlik o'rnatish yuzasidan Germaniya Xalqaro hamkorlik jamiyati loyiha direktori B.Volbergning 2024-yil 20-fevraldagi xatiga muvofiq Germaniyaning Federal ko'chmas mulk instituti, 2023-yil 9-oktabrda Germaniya Federal Moliya vazirligi va Davlat aktivlari agentligi o'rtasida imzolangan anglashuv memorandumining **qo'shimcha subyekti** etib belgilangandi.

Germaniya Federal Moliya vazirligining texnik ko'magi asosida, yangi tahrirdagi "Korporativ boshqaruv kodeksi" loyihasini ishlab chiqish uchun Germaniyaning "**Indecon consulting**" kompaniyasi jalb qilindi, mazkur loyiha Germaniya Federal Moliya vazirligining yillik kengash yig'ilishida tasdiqlandi.

Shuningdek, Germaniyalik hamkorlarning (Federal Moliya vazirligi departamenti direktori doktor Andreas Kerst, "Indecon consulting": Matias Nehm, Hans Yoahim Shramm) 2024-yil 26–31-may kunlar O'zbekistonga **tashrifi tashkil etildi**. Tashrif doirasida qator uchrashuvlar o'tkazilib, yangi tahrirdagi "Korporativ boshqaruv kodeksi"ning konsepsiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek 2024-yilning 3-dekabr kuni Korporativ boshqaruv kodeksining yangi loyihasi yuzasidan tushuntirish berish va keng muhokama qilish maqsadida Davlat aktivlari agentligi binosida seminar tashkil etilib, 200 dan ortiq ishtirokchilar ishtirok etdi.

Xitoy Davlat mulk nazorati va boshqaruvi qo'mitasi (SASAC) bilan hamkorlik o'rnatildi. Shuningdek, Xitoy davlatida bo'lib o'tgan "**Davlat ishtirokidagi korxonalarda xususiylashtirish va O'zbekistonning xalqaro hamkorligi sohasidagi salohiyatini oshirish**" mavzusidagi seminarda Davlat aktivlari agentligining **17 nafar** xodimlarining ishtirok etdi.

Respublika va munitsipal mulklarni boshqarishda Norvegiya, Shvetsiya, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya tajribasi o'rganildi.

4. Jahon savdo tashkilotiga a'zo (AQSH, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Shveysariya va Avstraliya) davlatlar tomonidan bugungi kunga qadar kelib tushgan **40 ta** savollarga yangilangan javoblar taqdim qilindi;

2024-yil 1-yanvar holatiga **1 646 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarining yangilangan ro'yxati shakllantirildi;

Faktologik rezyumedagi xususiylashtirish hamda davlat ishtirokidagi korxonalar qismiga tegishli ma'lumotlar yangilandi.

Xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha Yevropa Ittifoqi, AQSH, Avstraliya va Shveysariya tomonidan bildirilgan savollar asosida majburiyatlar jadvallarining tegishli qismi qayta ishlab chiqilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim qilindi.

5. Qatar, Pokiston, BAA, Saudiya Arabistoni, Mongoliya mamlakatlari bilan Hukumatlararo komissiyalari yig'ilish kun tartibiga Davlat aktivlari agentligi tomonidan taklif va ma'lumotlar tayyorlanib instansiyaga taqdim etildi.

7. 2024-yil davomida **davlat ishtirokidagi korxonalar** tomonidan **33,5 mln AQSH dollari** miqdorida xorijiy grantlarni jalb qilish bo'yicha xalqaro moliya tashkilotlari bilan **kelishuvga erishildi.**

Shuningdek, Davlat aktivlari agentligi va uning tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida hisobot davrida **1,8 mln AQSH dollari** miqdorida **xorijiy grantlar** jalb qilingan.



III. Davlat aktivlari agentligining boshqa faoliyat yo'nalishlari

3.1 Baholash va rieltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratish hamda professional jamoat birlashmalari mavqeyini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi hamda "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunlariga 2021-yil 13-oktabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib unda, baholovchi va rieltorlik tashkilotlari uchun litsenziyaga ega bo'lish talabi bekor qilingan.

Shunga ko'ra, baholash va rieltorlik faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida 2024-yilda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. "O'zbekiston Respublikasi **"Yagona milliy baholash standarti"** (Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 28-dekabrda 3487-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) mohiyati va ahamiyatini hamda me'yorlarni amaliyotda qo'llash va tushuntirish bo'yicha 2024-yil 2-fevralda Yagona milliy baholash standartining yangi tahriri bo'yicha baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari bilan birgalikda baholovchi tashkilotlar uchun (videokonferensaloqa orqali) seminar tashkil etildi.

Davlat aktivlari agentligining "Baholash faoliyatining yagona axborot platformasi"ning www.davbaho.uz domenida (*cabinet.davbaho.uz*) "Ekspertiza" sahifasida baholovchi tashkilotlar tomonidan baholash to'g'risidagi hisobotlarning haqqoniyligini ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra, rasmiylashtirilgan ekspertiza xulosalari yuzasidan "Ekspertiza xulosalarining yagona reyestri" (keyingi o'rinlarda – Yagona reyestr) yaratildi va test rejimidan o'tkazilib to'liq joriy etildi.

Shu bilan birga mazkur platformada:

baholash to'g'risidagi hisobotlarning haqqoniyligini ekspertizadan o'tkazish huquqi berilgan birinchi yoki oliy toifali baholovchilar bo'yicha ma'lumotlar kiritildi;

baholovchi tashkilotlar tomonidan rasmiylashtirilgan ekspertiza xulosasi bo'yicha ma'lumotlarni Yagona reyestrga ekspertiza tugagandan so'ng besh ish kuni ichida baholovchi tashkilot tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash amaliyoti joriy etildi;

Respublika bo'yicha baholovchi tashkilotlardan ekspertiza bo'yicha "kelib tushgan", "tahrirlash uchun qayta yuborilgan", "qabul qilingan" ma'lumotlar bo'yicha umumiy va hududlar kesimida avtomat ma'lumotlar olish;

ekspertiza bo'yicha qabul qilingan ma'lumotlar asosida, xohlagan davrga avtomat ravishda Yagona reyestr shakllantirish hamda mazkur reyestrn doimiy yangilab borish imkoni yaratildi.

Bugungi kunda, Yagona reyestrda baholovchi tashkilotlar tomonidan rasmiylashtirilgan ekspertiza xulosalari bo'yicha **765 ta** ma'lumotlar qabul qilindi hamda Davlat aktivlari agentligining rasmiy www.davaktiv.uz veb saytida "Ochiq ma'lumotlar" bo'limiga joylashtirildi.

2. Davlat aktivlari agentligining www.davbaho.uz axborot tizimida baholovchi tashkilotlar tomonidan baholash faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar shakli elektron raqamli imzo (Ye-Imzo) orqali taqdim etilishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur Platformaga yil boshidan **191 ta** baholovchi tashkilotlar tomonidan tegishli baholash faoliyati to'g'risidagi (*elektron*) ma'lumotlar shakli asosida 2023-yil uchun baholash sohasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (*shartnomalar soni va xizmatlar summasi 118,6 mlrd so'm*), baholangan mulk turiga qarab ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, baholash hisobotlari va ekspert xulosalari hamda faoliyat yurituvchi baholovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar qabul qilindi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan "O'zbekiston baholovchilar jamiyati" (www.oouz.uz) hamda "O'zbekiston baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati" (www.obemj.uz) tomonidan baholovchi tashkilotlarning reytingi aniqlanib, rasmiy saytda e'lon berildi.

3. 2024-yilda **46 marotaba** baholash obyektlari bahosi bo'yicha materiallarni bahsli vaziyatlarda sud organlari so'rovlariga ko'ra ekspertizadan o'tkazish bo'yicha Ekspert komissiyasining ishi tashkil etildi va **26 ta** ekspert xulosalari tayyorlanib sud organlariga yuborildi.

Bunda, **64,3 mlrd so'mlik** baholash qiymatiga ega bo'lgan obyektlar bo'yicha hujjatlar ko'rib chiqilib, xulosalar berildi.


4. Davlat aktivlari agentligining Baholovchilarga toifa berish yoki toifa berishni rad etish bo'yicha Baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari bilan birgalikda komissiya yig'ilishi bo'lib o'tdi, mazkur komissiyada **42 ta** talabgorga tegishli bo'lgan hujjatlar to'plami ko'rib chiqildi.

Komissiya bayonnomasi qaroriga asosan 2024-yilda **42 ta** talabgordan **26 ta** (*8-ta oliy, 15-ta birinchi, 3-ta ikkinchi*) talabgorga toifa guvohnomalari berildi.

5. Baholash sohasida qonunchilik talablarini buzish holatlari aniqlanganligi sababli **3 ta** baholovchiga nisbatan baholovchining malaka sertifikatlarini tugatish to'g'risida sudlarga da'vo arizalari kiritildi shundan **1 ta** baholovchining malaka sertifikati sud qaroriga asosan tugatildi.


6. 2024-yil boshidan **221 ta** baholovchilarga va **210 ta** rieltorlarga malaka sertifikatlari **berilgan bo'lib**, bugungi kunga respublikada jami **966 ta** baholovchida va **684 ta** rieltorida malaka sertifikatlari **amal qiladi.**

Baholovchi va rieltorlar yoʻnalishi boʻyicha malaka sertifikatiga olgan jismoniy shaxslar toʻgʻrisida




11.1-grafik

Malaka sertifikatiga ega boʻlgan baholash va rieltorlar toʻgʻrisida




Hududlar kesimida respublikadagi **966 ta** malaka sertifikatiga ega baholovchilar jami soniga nisbatan Toshkent shahrida **27 foiz (265 ta)** boʻlsa, Navoiy, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarda bu koʻrsatkich **5 foizdan** kam.

Hududlar miqyosida malaka sertifikatiga ega bo'lgan baholovchilar to'g'risida




Bugungi kunda respublikada **684 ta** malaka sertifikatiga ega rieltorlar faoliyat olib bormoqda. Hududlar kesimida jami soniga nisbatan Toshkent shahrida **51 foiz (352 ta)**, Samarqand viloyati **16 foiz (108 ta)**, Toshkent viloyati **7 foiz (48 ta)** va Buxoro viloyati **4 foiz (28 ta)** bo'lsa, qolgan hududlarda bu ko'rsatkich **5 foizdan** kam.

Hududlar miqyosida malaka sertifikatiga ega bo'lgan rieltorlar to'g'risida



Baholash faoliyatiga oid asosiy ma'lumotlar


BAHOLASH XIZMATLARI TURLARI



BAHOLASH FAOLIYATI SOHASIDAGI PROFESSIONAL JAMOAT BIRLASHMALARI

- Baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi **117** ta tashkilot a'zo
- O'zbekiston baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati **68** ta tashkilot a'zo
- O'zbekiston Baholovchilar jamiyati **56** ta tashkilot a'zo
- O'zbekiston Baholovchilar uyushmasi **51** ta tashkilot a'zo

Baholovchi tashkilotlar va baholovchilar soni



BAHOLASH SOHASIDA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH

Baholovchilarga "malaka sertifikatini" berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish to'liq avtomatlashtirildi (my.gov.uz) hamda 2024 yil davomida 435 ta talabgordan arizalar kelib tushdi va shundan QR-kod bilan rasmiylashtirilgan 221 ta sertifikatlar berildi.

BAHOLASH FAOLIYATINING YAGONA AXBOROT PLATFORMASIDA:

Baholash xizmatlarini ko'rsatish sohasini tahlil qilish, baholovchi tashkilotlar va baholovchilar reyestrini yuritish imkonini beruvchi yagona elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi; Baholovchi tashkilotlarning reyting va reningi joriy etildi; "Ekspertiza xulosalarining yagona reyestri" yaratilib, 765 ta ma'lumotlar qabul qilindi.

Yagona milliy baholash standartining yangi tahriri Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 28-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi (ro'yxat raqami 3487) va 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirdi.

BAHOLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



BAJARILGAN BAHOLASH XIZMATLARI ISH HAJMI




Rieltorlik faoliyatiga oid asosiy ma'lumotlar

RIELTORLIK XIZMATLARI TURLARI



Rieltorlik tashkilotlari va rieltorlar soni



RIELTORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

- 01** Rieltorlik faoliyatini tartibga soluvchi yagona umumlashtirilgan normativ hujjat – "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish va Rieltorlik xizmatlarining milliy standartlarini takomillashtirish
- 02** Sohada o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida jamoat birlashmalarini mavqeni oshirish
- 03** Rieltorlik tashkilotlarida jinoyat faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalariga rioya etish yuzasidan vakolatli organ bilan birgalikda tegishli ishlarni amalga oshirish
- 04** Ko'chmas mulk bozorini raqamli transformatsiya qilish, yashirin aylanmani qisqartirish, rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish imkoninini beruvchi xususiy Milliy multilisting tizimlarini yaratish va amaliyotga tadbir etishda ko'maklashish

RIELTORLIK FAOLIYATI SOHASIDAGI PROFESSIONAL JAMOAT BIRLASHMALARI

Rieltorlik tashkilotlari uyushmasi



O'zbekiston Rieltorlar gildiyasi



RIELTORLIK SOHASIDA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH



Rieltorlarga "malaka sertifikatini" berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish to'liq avtomatlashtirildi (my.gov.uz) hamda 01.01.2025 yilda 409 ta talabgordan arizalar kelib tushdi va shundan QR-kod bilan rasmiylashtirilgan 210 ta sertifikatlar berildi

RIELTORLIK FAOLIYATINING YAGONA AXBOROT PLATFORMASI



Yagona axborot platformasida (www.davbaho.uz) rieltorlik xizmatlarini ko'rsatish sohasini tahlil qilish, rieltorlik tashkilotlari va rieltorlar reyestrini yuritish imkonini beruvchi yagona elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

KO'RSATILGAN RIELTORLIK XIZMATLARI HAJMI




3.2 To'lovga qobiliyatsizlik jarayoni bo'yicha

1. 2024-yilning hisobot davrida **14 537 ta** (8 005 tasi 2023-yildan o'tgan, 6 532 tasi 2024-yilda bankrot deb topilgan) korxonalarda (mulki mavjud – **376 ta**) tugatish ishlari olib borilib, ularning **9 392 tasida** (3 055 tasi 2024-yilda bankrot deb topilgan) tugatish ishlari yakunlangan (mulki mavjud – **123 ta**), qolgan **5 145 tasida** (mulki mavjud – **253 ta**) tugatish ishlari davom etmoqda.

14-grafik

To'lovga qobiliyatsizlik jarayonlari to'g'risida



Mulki mavjud tugatish ishlari olib borilayotgan **253 ta** korxonadan:

- **57 tasining** mol-mulklari **649,2 mlrd so'm** boshlang'ich qiymatda "E-auksion" elektron-onlayn savdosiga chiqarilgan;

- **41 tasida** xatlov, **59 tasida** baholash, **26 tasida** uchinchi shaxslardan mulkini qaytarish bo'yicha sud jarayonlari olib borilmoqda;

- **25 tasining** mol-mulklari sotilgan, **34 tasining** mol-mulklari kreditorlarga, **4 tasining** mol-mulklari samarali foydalanish uchun sud hujjatlariga asosan mahalliy hokimliklarga berilgan hamda **7 tasining** faoliyatini tiklash choralari ko'rilmoqda.

Mol-mulki mavjud bankrot korxonalarining jami **394 mlrd so'mlik** kreditorlik qarzdorliklari, xususan soliq va yig'implardan **42 mlrd so'm**, ish haqidan **16 mlrd so'm**, bank kreditidan **212 mlrd so'm** hamda boshqa kreditorlardan **125 mlrd so'm** qarzdorliklari qoplangan.

Shuningdek, iqtisodiy sudning ajrimlariga asosan **9 ta** korxonalar nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikning **sud sanatsiyasi** hamda **3 ta** korxonalar


nisbatan **tashqi boshqaruv** taomillari joriy etilib, sanatsiya va tashqi boshqaruv rejalariga muvofiq korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

2. Sud boshqaruvchilari talabgorlariga malaka attestatini berish bo'yicha **davlat xizmati davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali** ko'rsatish amaliyoti joriy etildi.

Shu sababli, **315 nafar** sud boshqaruvchisi talabgori murojaatiga muvofiq ular attestatsiyadan o'tkazildi va ularning **157 nafariga** sud boshqaruvchisi attestati berildi, natijada ularning umumiy soni **333 ta**ga yetkazildi.

15-grafik

Sud boshqaruvchilari faoliyati



Davlat aktivlari agentligi tomonidan **240 nafar** sud boshqaruvchilarining ish faoliyati ko'rib chiqilib, **111 nafar sud boshqaruvchi attestati bekor qilingan**, **30 nafarining attestatining amal qilishi to'xtatilgan**, **38 nafariga** kamchiliklarni bartaraf etish haqida **ko'rsatma berilgan** hamda **61 nafariga** kelgusida kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik to'g'risida **ogohlantirish berildi**.

3. Tadbirkorlik subyektlari uchun xo'jalik jamiyatining to'lovga qobiliyatsizligi (bankrotligi) to'g'risida ma'lumotlarni "**my.gov.uz**" orqali olish **imkoniyati yaratilib**, 2024-yilda **49 656 ta** davlat xizmatlari ko'rsatildi.

4. 2024-yil yanvardan boshlab, "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan ma'lumotlarni sud boshqaruvchilari tomonidan o'z kabineti orqali Davlat aktivlari agentligining rasmiy **veb-saytida e'lon** qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yilib, 2024-yilda sud boshqaruvchilari tomonidan **5 400 tadan ortiq korxonalar** bo'yicha e'lonlar Davlat aktivlari agentligining veb-saytida joylashtirildi.

IV. “E-auksion” elektron savdo platformasi faoliyati

“E-auksion” elektron savdo platformasi orqali auksion va tanlov savdolarini o‘tkazish, uning inson omilisiz, shaffof tarzda o‘tkazilishi hisobiga yildan yilga ommalashib, undagi savdo turlari oshib bormoqda. Jumladan:

1. “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali **28 turdagi** jami **35,6 trln so‘m** boshlang‘ich narx bilan **289 706 ta** mol-mulklar va foydalanish huquqlari auksion va tanlov savdolariga chiqarilgan bo‘lib, boshlang‘ich narxi **12,7 trln so‘m** bo‘lgan **233 470 ta** lot **16,9 trln so‘mga** (*4,2 trln so‘m qimmatroq*) realizatsiya qilindi.

2. **Sanoat zonalari hududidagi yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish:**

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalari hududida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun **770 ta (2 206 gektar)** yer uchastkalarini auksion savdosiga chiqarilib, shundan **301 ta (1 396 ga)** yer uchastkasi **196,0 mlrd so‘mga** (boshlang‘ich narxiga nisbatan **22 mlrd so‘mga** qimmatroq) sotilgan.

Yoshlar va Kichik sanoat zonalari hududida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish bo‘yicha **1 155 ta (311 gektar)** (*Yoshlar sanoat zonasida 222 ta (27,7 ga)*, *Kichik sanoat zonasida 933 ta (283 ga)*) yer uchastkalarini auksion savdosiga chiqarilib, shundan **901 tasi (184 ga) 48 mlrd so‘mga** (boshlang‘ich narxiga nisbatan **11 mlrd so‘mga** qimmatroq) sotilgan.

3. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini yuridik shaxslar uchun ijara huquqi asosida **3 221 ta (188 383 ga)** yer maydonlari **874 mlrd so‘m** boshlang‘ich narxda auksion/tanlov savdolariga chiqarilib, shundan boshlang‘ich narxi **746 mlrd so‘m** bo‘lgan **1 513 ta (99 633 ga)** yer maydonlari **1 374 mlrd so‘mga**;

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha **2024-yilda** boshlang‘ich qiymati **1,0 trln so‘m 18 520 gektar** yer maydoniga ega **23 645 ta** yer uchastkalarini auksion/tanlov savdolariga chiqarilgan va **10 026 ta (7 614 ga)** yer uchastkalarini **709 mlrd so‘mga**;

Yoshlarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun ijara huquqi asosida **161 674 ta (61 330 ga)** yer maydonlari **2 262 mlrd so‘m** boshlang‘ich narxda savdoga chiqarilib, shundan boshlang‘ich narxi **2 097 mlrd so‘m** bo‘lgan **152 897 ta (56 171 ga)** yer maydonlari **2 441 mlrd so‘mga** ijaraga berildi.

4. “E-auksion” elektron savdo platformasi negizida maxsus **ipo.e-auksion.uz** savdo platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Shuningdek, 2024 yilda o‘tkazilgan “Xalqchil IPO” loyihasi davomida **ipo.e-auksion.uz** platformasi orqali **8 413 nafar investorning 314 556 dona aksiya olish** bo‘yicha arizalari kelib tushgan bo‘lib ular tegishli tartibda taqsimot uchun investitsion vositachilariga yuborildi. Platforma yordamida investor va investitsion vositachilari o‘rtasida brokerlik xizmatini ko‘rsatish va **depo**

hisobvaraqq ochish to'g'risida **9 475 dona** elektron shartnoma imzolandi.

5. Yangi yo'nalishlarni joriy etish sohasida

– **barcha davlat muassasalarining asosiy vositalari** “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali sotish;

– **xususiyl mulkdorlar** buyurtmalarini realizatsiya qilish va ijaraga berish bo'yicha **soddalashtirilgan tartib va muddatlarda** “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali sotish yo'lga qo'yildi;

– qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishda ochiq elektron **tanlov o'rniga** elektron onlayn-auksion savdolarini o'tkazish joriy qilindi

– **O'rmon fondi** yer uchastkalarini hamda **davlatga tegishli suv havzalarini** tadbirkorlik subyektlariga “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish yo'lga qo'yildi

– **“Chorvoq” turistik-rekreatsion zonasi** buyurtmasiga asosan alohida shartlar asosida **“Ugam river” turistik majmuasi** moduli yaratilib investitsiya shartnomasini tuzish huquqi bo'yicha auksion savdolari tashkil etildi.

– davlat ishtirokidagi korxonalar davlat ulushi sotish bo'yicha savdolarini tashkil etishda, ishtirokchilar tomonidan sotib olish narxi bo'yicha Majburiyatga ega bo'lgan **takliflarni (The Best Offer) qabul qilish** imkoniyati yaratildi.

6. “E-auksion” platformasini texnologik takomillashtirish sohasida

“Assistyent” tizimida yoshlar yetakchilari uchun **“Mahalla yettiligi”** ning tavsiyasini olgan yoshlarni auksionlarda qatnashishga **ruxsat berish** imkoniyati yaratildi.

Yer uchastkalari bo'yicha to'lovlarini to'lash bo'yicha shartnomalarni platforma orqali imzolash yo'lga qo'yildi;

“E-auksion shop” elektron savdo do'konining mobil qurilmalar uchun **mobil ilovalari** ishlab chiqildi va ishga tushirildi;

ommaviy oferta va boshqa shartnomalarni imzolashda qo'shimcha ravishda **OneID tizimidan** foydalanish imkoniyati yaratildi.

davlat aktivlari bo'yicha chegirma berishni nazarda tutuvchi oldi-sotdi shartnomalari hamda kichik sanoat zonalari, tadbirkorlik yerlari (**bo'lib to'lash**) va **O'rmon fondi** yer uchastkalari uchun **shartnomalar elektron shaklda** savdo platformasida imzolash imkoniyati joriy qilindi.

4.1 Davlat aktivlarining auksion savdolari

2024-yil davomida davlat ko'chmas mulki obyektlari va davlat ulushlari bo'yicha **1 273 ta** obyekt **3 793,5 mlrd so'm** boshlang'ich narxda elektron savdolariga chiqarilib, boshlang'ich narxi **2 153,5 mlrd so'mlik 1 655 ta** obyekt (*yildan yilga o'tuvchilari bilan birga*) **2 589 mlrd so'mga** (**436 mlrd so'm** qimmatroqqa) sotildi.

Shundan:

– **1 134 ta davlat obyektlari 2 481 mlrd so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **1 653 mlrd so'm** bo'lgan **1 516 ta** davlat obyektlari **2 021 mlrd so'm** yoki **368 mlrd so'm** qimmatga realizatsiya qilingan.

– **117 ta davlat ulushlari 1 217 mlrd so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **407 mlrd so'm** bo'lgan **118 ta** davlat ulushlari **470 mlrd so'm** yoki **63 mlrd so'm** qimmatga realizatsiya qilingan.

– **22 ta alohida shartlar asosida sotiladigan davlat aktivlari 95 mlrd so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **93 mlrd so'm** bo'lgan **21 ta** davlat aktivlari **98 mlrd so'm** yoki **5 mlrd so'm** qimmatga realizatsiya qilingan.

- *Toshkent shahar, Mirobod tumanidan narxi **161,3 mlrd so'm** bo'lgan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasiga qarashli bo'sh turgan mulkiy majmua **185,4 mlrd so'mga** sotildi (lot raqami – 11787426);*

- *Toshkent shahar, Yunusobod tumanidan narxi **23,4 mlrd so'm** bo'lgan "5-son stomatologik poliklinika" MChJning ustav fondidagi 100 foiz davlat ulushi **38,7 mlrd so'mga** sotildi (lot raqami – 10074864);*

- *Samarqand viloyati, Samarqand shahridan narxi **8,3 mlrd so'm** bo'lgan Samarqand shahar hokimligiga qarashli bo'sh turgan ma'muriy va yordamchi bino **21,5 mlrd so'mga** sotildi (lot raqami – 11965558).*

4.2 Davlat ishtirokidagi korxonalar aktivlarini auksionda realizatsiya qilish va ijaraga berish holati

2024-yil davomida boshlang'ich narxi **7,1 trln so'm** bo'lgan **16 358 ta** ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining 50 foizi va undan ortig'i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslarning (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ulushlari, ko'chmas mulklari, avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalari auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **2,5 trln so'm** bo'lgan **8 682 tasi** (yildan yilga o'tuvchilari bilan birga) **2,8 trln so'mga** yoki **297 mlrd so'm** qimmatga sotilgan/ijaraga berilgan. Shundan:

Boshlang'ich narxi **5,7 trln so'm** bo'lgan **2 471 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulklari va ulushlari auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **1,9 trln so'm** bo'lgan **1 261 tasi** **2,1 trln so'mga** yoki **172,0 mlrd so'm** qimmatga realizatsiya qilingan;

– Toshkent viloyati, Toshkent tumanidan narxi **6,6 mlrd so'm** bo'lgan “O'zsanoatqurilishbank” ATBning Chilonzor filialiga qarashli “Ma'muriy bino va ishlab chiqarish sexi” bino va inshootlari 2024-yil 8-yanvarda **12,6 mlrd so'mga** sotildi. (lot raqam – 7693244).

Boshlang'ich narxi **1,1 trln so'm** bo'lgan **12 453 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarining boshqa mol-mulklari auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **393 mlrd so'm** bo'lgan **6 519 tasi** **449 mlrd so'mga** yoki **56,0 mlrd so'm** qimmatga realizatsiya qilingan;

- Buxoro viloyati, Peshku tumanidan narxi **938,2 mln so'm** bo'lgan “Buxoro Agroservis MTP” MChJga qarashli Jhon Deer traktori bilan Texnolog 3+1 aylanma omoich birgalikda 2024-yil 16-iyulda **1,7 mlrd so'mga** sotildi (lot raqami – 10186339).

Yillik ijara stavkasi narxi **239 mlrd so'm** bo'lgan **8 630 ta** davlat ishtirokidagi korxonalar ko'chmas mulklari, avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan narxi **203 mlrd so'm** bo'lgan **7 759 tasi** (yildan yilga o'tuvchilari bilan birga) **306 mlrd so'mga** yoki **103 mlrd so'm** qimmatga ijaraga berilgan;

– Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidan yillik ijara stavkasi **8,4 mlrd so'm** bo'lgan “Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti” MChJ binosidagi reklama o'rnatish joylari 2024-yil 29-aprelda **22,3 mlrd so'mga** ijaraga berildi (lot raqami: 8709773).

V. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini realizatsiya qilish to'g'risida

5.1 Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun yer uchastkalarini realizatsiya qilish to'g'risida.

2024-yil davomida Respublika bo'yicha (o'tgan yildan o'tuvchi yerlar bilan birga) maydoni **9 427,7 gektar** bo'lgan **95 543 ta** yer uchastkalari **mulk va ijara huquqida 5,9 trln so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga qo'yilgan.

Shundan, maydoni **6 673,8 gektar** bo'lgan **5,7 trln so'm** boshlang'ich narxdagi **48 876 ta** yer uchastkalari 2024-yilda savdoga chiqarilgan.

2024-yilda 35 358 ta (**4 105 ga**), **2,8 trln so'm** boshlang'ich narxdagi **mulk va ijara huquqidagi** yer uchastkalari **4,4 trln so'mga** yoki **1,6 trln so'm** qimmatga sotilgan.

Shundan:

- **Mulk huquqida** 2024-yilda **15 915 ta** (**743 gektar**) yer uchastkalari **343,5 mlrd so'm** boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan **22 869 ta** (yildan yilga o'tuvchilari bilan birga) **1 380 gektar** yer uchastkalari **452 mlrd so'mga** realizatsiya qilingan;

- Toshkent shahri, Mirobod tumanidan narxi **2,9 mlrd so'm** bo'lgan **6 sotix** yer uchastkasi oshxona, kafelar, savdo uylari qurish uchun **ijara huquqi** bilan 2024-yil 22-iyulda **15,1 mlrd so'mga** sotildi (lot raqami – 10158476).

- **Ijara huquqida** 2024-yilda **31 756 ta** (**5 711 gektar**) yer uchastkalari **3 486 mlrd so'm** boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan **11 455 ta** (yildan yilga o'tuvchilari bilan birga) **2 548 gektar** yer uchastkalari **1 809 mlrd so'mga** (**643 mlrd so'm** qimmatroqqa) realizatsiya qilingan;

- Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidan narxi **88,8 mln so'm** bo'lgan **8 sotix** yer uchastkasi ko'p qavatli turar-joy binolari qurish uchun **ijara huquqi** bilan 2024-yil 9-avgustda **4,1 mlrd so'mga** sotildi (lot raqami – 10486363).

- **Ko'p qavatli uy-joy qurish uchun** 2024-yilda **1 205 ta** (**220 gektar**) yer uchastkalari **1 919 mlrd so'm** boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan **1 031 ta** (yildan yilga o'tuvchilari bilan birga) **178 gektar** yer uchastkalari **2 109 mlrd so'mga** (**785 mlrd so'm** qimmatroqqa) realizatsiya qilingan;

- Toshkent viloyati, Chirchiq shahridan narxi **27,3 mln so'm** bo'lgan **10 sotix** yer uchastkasi ko'p qavatli turar-joy binolari qurish uchun **ijara huquqi** bilan 2024-yil 4-aprelda **4,5 mlrd so'mga** sotildi (lot raqami – 8368839).

e-auksion.uz



platformasida savdo natijalari



	2021	2022	2023	2024
	19	25	26	28
	53 685	583 806	336 538	289 706
	23 373	475 301	302 490	233 470
	1 807	3 868	8 396	12 653
	2 234	5 501	11 929	16 861

	Sotiladigan mulk toifasi
	Savdoga chiqarilgan mulklar soni (ta)
	Sotilgan mulklar soni (ta)
	Boshlang'ich narxi (mlrd. so'm)
	Sotilgan narxi (mlrd. so'm)

Eng qimmat sotilgan ayrim mulklar



Bo'sh turgan mulkiy majmua

Sotilgan narxi

185,4 mlrd. so'm



Noturar bino

Sotilgan narxi

100,3 mlrd. so'm



"Eyvalek maxsus temir beton" MChJdagi 49 foiz davlat ulushi

Sotilgan narxi

46,2 mlrd. so'm



"5-son stomatologik poliklinika" MChJdagi 100 foiz davlat ulushi

Sotilgan narxi

38,6 mlrd. so'm

“E-AUKSION” ELEKTRON SAVDO PLATFORMASI FAOLIYATI 2024-yil

SAVDOGA CHIQRILGAN MULKLAR

289 706 ta

35 637 mlrd so'm

REALIZATSIYA QILINGAN

233 470 ta

12 653 mlrd so'm

16 861 mlrd so'm

■ Soni

■ Boshlang'ich narxi

■ Sotilgan narxi



ISHTIROKCHILAR SONI



- Davlat aktivlarini **7 747**
- Davlat aktivlari ijarasi **20 130**
- Yer uchastkalari **75 902**
- Qishloq va dehqon xo'jaligi yerlari **197 206**
- Ko'chma savdo joylari **21 393**
- Ijro hujjatlari bo'yicha mulklar **58 806**
- Boshqalar **27 471**

AUKSION NATIJALARI



Davlat aktivlari ijarasi

7 759 ta 306,2 mlrd so'm



Davlat aktivlarini

2 916 ta 4 736 mlrd so'm



Yer uchastkalari

35 358 ta 4 369 mlrd so'm



Qishloq va dehqon xo'jaligi yerlari

164 436 ta 4 524 mlrd so'm



Ijro hujjatlari bo'yicha mulklar

7 136 ta 1 920 mlrd so'm



Ko'chma savdo joylari

7 898 ta 15,1 mlrd so'm

XULOSA

Davlat aktivlari agentligining **2025-yildagi asosiy vazifasi** ham iqtisodiyotning xususiy sektor rivojlangan tarmoqlarida **davlat ishtirokini keskin kamaytirish, xususiy sektor faoliyat ko'rsatishi uchun qulay raqobat muhitini yaratish hamda xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish**, davlat ishtirokidagi korxonalarda **zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish** orqali ularni samarali boshqarishni tashkil etish, davlat mulki, shu jumladan bo'sh turgan **davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish** bo'lib qoladi.

2025-yildagi vazifalarni amalga oshirish uchun Davlat aktivlari agentligi tizimida safarbarlik e'lon qilinadi!